



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinov</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlarini	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'ichi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля kameraproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'k'lanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyeovich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction	205
<i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati	208
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari	214
<i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari	219
<i>Alqarov Qodir Xolmatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish	222
<i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari	226
<i>Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari	230
<i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili	236
<i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	240
<i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	245
<i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>	
Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari	249
<i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish	253
<i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish	257
<i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	261
<i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari	264
<i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations	268
<i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari	272
<i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi	276
<i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools	279
<i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration	282
<i>Shahlo Obidova</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish	286
<i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
Talabalarining to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari	290
<i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



YOSH VOLEYBOLCHILARNING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIKLARINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Temirov Shoirbek Raimjonovich

Andijon davlat universiteti

“Sport nazariyasi va metodikasi” kafedrası dotsent v.b.

<https://orcid.org/0009-0009-5680-4677>



Annotatsiya: Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda voleybol sport turida yuqori natijalarga erishishda jismoniy sifatlarning, jumladan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikning o'rnini yoritilgan. Shuningdek, yosh sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi bilan maxsus jismoniy tayyorgarligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik pedagogik nuqtai nazardan asoslab berilgan. Mashg'ulot jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, differensial yondashuv hamda individual yuklamalarni qo'llashning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida yosh voleybolchilarning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, texnik-taktik harakatlarni mukammallashtirish va musobaqa faoliyatiga tayyorlashda maxsus mashqlar tizimining ahamiyati ochib berilgan. Maqola natijalari sport maktablari va murabbiylar faoliyatida mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish hamda yosh voleybolchilarning sport mahoratini oshirishda muhim metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: voleybol, yosh voleybolchilar, jismoniy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, pedagogik yondashuv, sport mashg'ulotlari, texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy sifatlari.

Abstract: The pedagogical foundations of improving the general and special physical training of young volleyball players are scientifically and theoretically analyzed. The study highlights the role of physical qualities, including strength, speed, endurance, agility, and flexibility, in achieving high results in volleyball. Also, the inextricable link between the general physical training of young athletes and special physical training is substantiated from a pedagogical point of view. The effectiveness of using modern pedagogical technologies, a differential approach, and individual loads in the training process is analyzed. The study reveals the importance of a system of special exercises in developing the functional capabilities of young volleyball players, improving technical and tactical movements, and preparing them for competitive activities. The results of the article serve as an important methodological resource for organizing training on a scientific basis in sports schools and coaching practice, as well as improving the sports skills of young volleyball players.

Key words: volleyball, young volleyball players, physical training, special training, pedagogical approach, sports training, technical and tactical training, physical qualities.

Аннотация: В статье научно и теоретически проанализированы педагогические основы совершенствования общей и специальной физической подготовки юных волейболистов. В работе подчеркивается роль физических качеств, включая силу, скорость, выносливость, ловкость и гибкость, в достижении высоких результатов в волейболе. Также с педагогической точки зрения обосновывается неразрывная связь между общей физической подготовкой юных спортсменов и специальной физической подготовкой. Анализируется эффективность использования современных педагогических технологий, дифференцированного подхода и индивидуальных нагрузок в тренировочном процессе. Исследование выявляет важность системы специальных упражнений в развитии функциональных возможностей юных волейболистов, совершенствовании технико-тактических движений и подготовке их к соревновательной деятельности. Результаты статьи служат важным методическим ресурсом для организации тренировок на научной основе в спортивных школах и у тренеров, а также для повышения спортивных навыков юных волейболистов.

Ключевые слова: волейбол, юные волейболисты, физическая подготовка, специальная подготовка, педагогический подход, спортивная подготовка, технико-тактическая подготовка, физические качества.

KIRISH

Bugungi kunda sport sohasida yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol va raqobatbardosh etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, voleybol sport turi yoshlarning jismoniy rivojlanishi, funksional imkoniyatlarini kengaytirish hamda irodaviy sifatlarini shakllantirishda muhim



ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy voleybolda yuqori sport natijalariga erishish sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli yosh voleybolchilarni tayyorlash jarayonida ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni qo'llash dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Yosh voleybolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi organizmning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa sport faoliyatiga xos bo'lgan tezkorlik, sakrovchanlik, chaqqonlik, kuch va chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulot jarayonida ushbu ikki tayyorgarlik turining uyg'un holda tashkil etilishi texnik-taktik harakatlarning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Ayniqsa, pedagogik texnologiyalar asosida rejalashtirilgan mashg'ulotlar yosh sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, yuklamalarni me'yorlashtirish va sport natijalarini barqaror rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari, mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning samarali usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Yu.V. Verkhoshanskiy va L.P. Matveyev sport mashg'ulotlarini ilmiy rejalashtirish sportchilarning funksional imkoniyatlarini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan.

N.G. Ozolin jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish sport mahoratini shakllantirishning asosiy sharti ekanligini qayd etadi.

A.Ya. Gomelskiy hamda V.I. Lyax tadqiqotlarida voleybolda tezkorlik, sakrovchanlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish muhimligi yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlardan A.K. Atayev va K.M. Maxkamjonov yosh sportchilar tayyorgarligida pedagogik yondashuv hamda individual yuklamalarning ahamiyatini ilmiy asoslab berganlar.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligining nazariy-pedagogik asoslarini o'rganish;
2. Voleybol mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
3. Yosh voleybolchilarning tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va sakrovchanlik ko'rsatkichlarini aniqlash;
4. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;
5. Mashg'ulot jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va individual yondashuv samaradorligini baholash;
6. Tajriba-sinov ishlari orqali ishlab chiqilgan metodikaning amaliy samaradorligini aniqlash.

Yosh voleybolchilarni tayyorlash tizimida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy voleybol sport turida yuqori natijalarga erishish sportchilarning nafaqat texnik va taktik mahoratiga, balki jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli mashg'ulot jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni ilmiy-pedagogik asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchi organizmini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilsa, maxsus jismoniy tayyorgarlik voleybol o'yiniga xos harakatlarni takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik jarayonida yosh voleybolchilarda kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantiriladi. Ushbu sifatlarni sportchilarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash bilan birga, keyingi maxsus tayyorgarlik bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mashg'ulotlarda yugurish mashqlari, umumrivojlantiruvchi mashqlar, estafeta o'yinlari hamda koordinatsiyani rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Ayniqsa, yosh sportchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yuklamalarni me'yorlashtirish murabbiy faoliyatining muhim pedagogik jihatlaridan biridir.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik esa voleybol o'yinining o'ziga xos harakat faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Jumladan, sakrovchanlik, tezkor reaksiya, to'pni qabul qilish va uzatishdagi aniqlik, maydonda tez harakatlarni hamda zarba berish texnikasi maxsus tayyorgarlikning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bu jarayonda plyometrik mashqlar, sakrash mashqlari, qisqa masofaga tezkor yugurishlar va maxsus koordinatsion mashqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Maxsus mashqlarni muntazam qo'llash yosh voleybolchilarning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, musobaqa faoliyatidagi samaradorligini oshiradi.



Mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogik yondashuv muhim rol o'ynaydi. Murabbiy mashg'ulot davomida sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishi, differensial yondashuv asosida mashqlarni tanlashi hamda motivatsion usullardan samarali foydalanishi zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va nazorat-test tizimlaridan foydalanish yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash hamda rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, texnik-taktik tayyorgarlikni jismoniy sifatlar bilan uyg'un holda olib borish sportchilarning o'yin davomida tez va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni kompleks tarzda tashkil etish yosh voleybolchilarning sport mahoratini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulot jarayonining ilmiy asosda rejalashtirilishi sportchilarning jismoniy rivojlanishi, funksional holati hamda musobaqa natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bois yosh voleybolchilarni tayyorlashda pedagogik yondashuvlarga asoslangan innovatsion mashg'ulot tizimlarini qo'llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishning pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda sport mashg'ulotlari jarayonini kuzatish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, voleybolchilar jismoniy tayyorgarligining holatini aniqlash uchun pedagogik kuzatuv va test sinovlari o'tkazildi.

Tadqiqot davomida yosh voleybolchilarning tezkorlik, chidamlilik, kuch, sakrovchanlik va chaqqonlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida maxsus nazorat mashqlari bajarildi. Jumladan, 30 metrga yugurish, joydan turib uzunlikka sakrash, vertikal sakrash, shuttle-run hamda chidamlilik testlari orqali sportchilarning jismoniy holati baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlar ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Mashg'ulotlar jarayonida pedagogik tajriba metodi asosida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Tadqiqot metodologiyasida individual yondashuv, yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish hamda sportchilarning yosh va funksional xususiyatlarini hisobga olish tamoyillariga alohida e'tibor qaratildi. Natijalar asosida yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida tahlil qilindi. Dastlabki natijalar sportchilarning tezkorlik, sakrovchanlik, chidamlilik hamda chaqqonlik ko'rsatkichlari bir xil darajada emasligini ko'rsatdi. Mashg'ulotlar davomida tajriba guruhida maxsus ishlab chiqilgan pedagogik mashqlar tizimi qo'llanilib, individual yondashuv asosida yuklamalar bosqichma-bosqich oshirib borildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy mashg'ulot usullaridan foydalanildi.

Tajriba yakunida tajriba guruhi sportchilarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, 30 metrga yugurish natijalari yaxshilanib, tezkorlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Vertikal sakrash va joydan uzunlikka sakrash testlarida ham yuqori natijalar qayd etildi. Bu esa maxsus mashqlar sportchilarning sakrovchanlik va kuch sifatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Shuttle-run hamda chidamlilik testlari natijalari sportchilarning koordinatsion imkoniyatlari va umumiy funksional tayyorgarligi yaxshilanganini ko'rsatdi.

Mashg'ulotlar davomida pedagogik yondashuv, motivatsion metodlar va differensial mashqlar tizimidan foydalanish sportchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Ayniqsa, texnik-taktik mashqlarni jismoniy tayyorgarlik bilan uyg'un holda olib borish musobaqa faoliyatidagi samaradorlikni kuchaytirdi. Tadqiqot natijalari umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni kompleks ravishda rivojlantirish yosh voleybolchilarning sport mahoratini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ilmiy asoslangan pedagogik metodlardan foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini ilmiy-pedagogik asosda tashkil etish sport mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Mashg'ulotlar jarayonida umumiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda voleybol o'yiniga xos maxsus mashqlardan foydalanish sportchilarning tezkorlik, sakrovchanlik, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar yosh sportchilarning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, musobaqa faoliyatidagi samaradorligini yaxshiladi.

Pedagogik tajriba natijalari zamonaviy mashg'ulot metodlari, differensial yondashuv va motivatsion usullardan foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishini tasdiqladi. Texnik-taktik tayyorgarlikni jismoniy sifatlar bilan uyg'unlashtirish esa yosh voleybolchilarning o'yin jarayonida tez va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirdi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- yosh voleybolchilar mashg'ulotlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini kompleks tarzda qo'llash;
- mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda rejalashtirish;
- sakrovchanlik, tezkorlik va koordinatsiyani rivojlantiruvchi innovatsion mashqlar tizimidan foydalanish;
- mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va nazorat-test tizimlarini keng joriy etish;
- murabbiylarning ilmiy-metodik tayyorgarligini muntazam takomillashtirib borish.

Mazkur tavsiyalar yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirish hamda yuqori sport natijalariga erishishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari. - Toshkent, 2017–2023.
3. Matveyev L.P. Sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi. - Moskva: Fizkultura i sport, 2010.
4. Ozolin N.G. Yosh sportchilarni tayyorlash asoslari. - Moskva: Sport akademiyasi nashriyoti, 2008.
5. Verkhoshanskiy Yu.V. Sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi. - Moskva: Sovetskiy sport, 2012.
6. Maxkamjonov K.M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2015.
7. Atayev A.K. Sport pedagogikasi va murabbiylik mahorati. - Toshkent: Tafakkur, 2018.
8. Lyax V.I. Harakat faoliyati va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi. - Moskva: Akademiya, 2011.
9. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. Sport o'yinlarini o'qitish metodikasi. - Toshkent: Cho'lpon, 2014.
10. Gallahue D.L., Ozmun J.C. Understanding Motor Development. - New York: McGraw-Hill, 2012.
11. Bomp T.O. Theory and Methodology of Training. - Human Kinetics, 2009.
12. Platonov V.N. Sport tayyorgarligining umumiy nazariyasi. - Kiev: Olimpiya adabiyoti, 2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.